

## Xorazm viloyatida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar


(2018 yil yanvar-mart)

Xorazm viloyatida ijtimoiy soha va iqtisodiy rivojlantirish uchun barcha mulkchilik shakllaridagi tashkilotlarning 2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 369,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2017 yilga nisbatan 115,1 foizga ko'paydi.

2018 yilda jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 13,9 foizi Urganch shahri, Urganch va Shovot tumanlarida mos ravishda jami investitsiyalarning 6,1 foiz va 9,9 foizi o'zlashtirildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 2018 yilda 203,7 ming so'm yoki 113,3 foizni tashkil etdi.

### 2018 yil aholi jon boshiga hisoblangan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (o'tgan yilga nisbatan)




Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar Urganch shahrida 364,1 ming so'm (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50,2 foiz), Shovot va Yangibozor tumanlarida mos ravishda 221,9 ming so'm (90,8 foiz) va 277,4 ming so'm (87,5 foiz) qayd qilindi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2018 yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi.**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan foizda
<b>Jami:</b>	<b>368,2</b>	<b>100,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	42,5	11,5
Tog'-kon sanoati	0	0
Ishlab chiqarish sanoati	56,8	15,4
Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	6,2	1,7
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash	0,2	0,1
Qurilish	7,7	2,1
Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash	33,4	9,1
Tashish va saqlash	34,0	9,2
Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar	5,3	1,4
Axborot va aloqa	2,0	0,5
Moliya va sug'urta faoliyati	7,7	2,1
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	3,0	0,8
Ta'lim	2,7	0,7
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4,1	1,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,6	0,2
Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar	130,0	35,3
Boshqa faoliyat turlari	32,0	8,7

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 56,6 foizdan ortig'i quyidagi iqtisodiy faoliyat turlariga yo'naltirildi: qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (11,5 foiz), ishlab chiqarish sanoati (15,4 foiz) va jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar (35,3 foiz).

## 2018 yil uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (jamiga nisbatan foizda)



- Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqarish sanoati
- Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash
- Qurilish
- Ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalar va mototsikllarni ta'mirlash
- Tashish va saqlash
- Ovqatlanish va yashash bo'yicha xizmatlar
- Axborot va aloqa
- Moliya va sug'urta faoliyati
- Professional, ilmiy va texnik faoliyat
- Ta'lim
- Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
- San'at, ko'ngil ochish va dam olish
- Jami faoliyat turlaridan tashqari: turar joy qurilishiga investitsiyalar
- Boshqa faoliyat turlari

**2018 yil yanvar-martda moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar**

	<i>mlrd.so'm</i>	<i>o'sish sur'ati %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz</i>
<b>Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar</b>	<b>368,2</b>	<b>115,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
<b>Markazlashgan investitsiyalar:</b>	<b>59,3</b>	<b>173,6</b>	<b>16,1</b>
byudjet mablag'lari	20,6	133,7	5,6
davlat maqsadli fond mablag'lari	6,6	308,7	1,8
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag'lari	7,4	114,8	2,0
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	24,7	243,4	6,7
<b>Markazlashmagan investitsiyalar:</b>	<b>308,9</b>	<b>108,2</b>	<b>83,9</b>
korxonalarining o'z mablag'lari	113,4	113,4	30,8
aholi mablag'lari	109,3	69,0	29,7
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlari	3,9	170,2	1,0
tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	82,3	364,0	22,4

2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy moliyalashtirish manbaining 60,5 foizini korxonalar va aholining o'z mablag'lari tashkil etgan. Jami investitsiyaning 39,5 foizi jalb qilingan mablag'lar hisobiga to'g'ri keladi.

**Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi  
Sh.Bobojanov**

**Nashr uchun mas'ul:**

**tel: (0362) 224-65-22**